UDK: 331.5:338.46:004.738.5(575.141)

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA BANDLIGINING O‘RNI

Odiljonov Alibek
Samarqand pedagogika instituti assistenti
+998 93 806 04 64
alibekodiljonov123@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisda platforma bandligi xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqilgan. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida 2024-2025-yillarda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sonining respublika va Samarqand viloyati bo‘yicha dinamikasi, viloyat ulushi va aholiga nisbatan zichligi hisoblangan. Taksi agregatorlari misolida platforma orqali ishlovchilar soni, safarlar hajmi va bitta ishtirokchiga to‘g‘ri keladigan tushum baholangan. Ijtimoiy himoya, soliq va malaka bo‘yicha takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *platforma bandligi, gig-iqtisodiyot, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, xizmat ko‘rsatish sohasi, taksi agregatorlari, ijtimoiy soliq, Samarqand viloyati.*

Аннотация. *В тезисе платформенная занятость рассматривается как инструмент развития сферы услуг. На основе данных Налогового комитета рассчитаны динамика численности самозанятых в Республике Узбекистан и Самаркандской области в 2024-2025 годах, доля области и плотность самозанятости на тысячу жителей. На примере агрегаторов такси оценены численность работающих через платформы, объём поездок и выручка в расчёте на одного участника. Даны предложения по социальной защите, налогам и квалификации.*

Ключевые слова: *платформенная занятость, гиг-экономика, самозанятые, сфера услуг, агрегаторы такси, социальный налог, Самаркандская область.*

Abstract. *The paper considers platform work as an instrument for developing the service sector. Using Tax Committee data, it calculates the dynamics of the number of self-employed persons in Uzbekistan and Samarkand region in 2024–2025, the region’s share and self-employment density per thousand residents. Taking taxi aggregators as an example, it estimates the number of platform workers, trip volumes and revenue per participant. Proposals on social protection, taxation and skills are made.*

Key words: *platform work, gig economy, self-employed persons, service sector, taxi aggregators, social tax, Samarkand region.*

Raqamli platformalar xizmat ko‘rsatish sohasiga mehnatni tashkil etishning yangi shakli sifatida ham kirib keldi: taksi, yetkazib berish, uy ta’miri, dizayn yoki dasturlash xizmatlarini bajaruvchilar tobora ko‘proq mehnat shartnomasisiz, platforma orqali alohida

buyurtmalar uchun ishlamoqda. Adabiyotda bu hodisa platforma bandligi yoki gig-iqtisodiyot deb ataladi.

O‘zbekistonda bunday bandlikning huquqiy asosi 2020-yilda yaratilgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxs maqomidir. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunda bunday shaxslar band aholi tarkibiga kiritilgan, Vazirlar Mahkamasining 806-son qarori bilan maqomni mobil ilova orqali bepul olish tartibi belgilangan. PQ-247-son qaror bilan esa ular uchun 2030-yil oxirigacha alohida huquqiy rejim, integratsiyalashgan raqamli platformalar va elektron hamyon joriy etilgan.

Samarqand viloyati o‘zini o‘zi band qilganlarning mutlaq soni bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinda turadi. Tezisning maqsadi – platforma bandligi ko‘lamini baholash va uni xizmatlar sohasini rivojlantirish vositasiga aylantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Platforma bandligi alohida statistik kuzatilmaydi, biroq platforma orqali xizmat ko‘rsatuvchilarning asosiy qismi o‘zini o‘zi band qilgan maqomida ro‘yxatdan o‘tgani sababli uni shu ko‘rsatkich orqali bilvosita baholash mumkin.

1-jadval


O‘zbekiston Respublikasi va Samarqand viloyatida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni

Sana	Respublika, mln kishi	Respublika, yillik o‘sish, %	Viloyat, ming kishi	Viloyat, 01.04.2024 = 100	Viloyat ulushi, %
01.04.2024	2,8	79,5	370,5	100,0	13,2
01.06.2024	3,2	118,2	406,9	109,8	12,7
01.08.2024	3,7	107,4	452,0	122,0	12,2
01.10.2024	4,0	86,8	470,1	126,9	11,8
01.01.2025	4,4	76,5	508,1	137,1	11,5
01.02.2025	4,6	74,5	526,0	142,0	11,4
01.03.2025	4,7	81,8	539,8	145,7	11,5
01.07.2025	5,5	56,0	593,2	160,1	10,8

Jadvalga ko‘ra, 15 oyda viloyatda o‘zini o‘zi band qilganlar soni 222,7 ming kishiga (1,6 marta), respublikada esa qariyb 2 marta oshgan, natijada viloyat birinchi o‘rinni saqlagani holda uning ulushi 13,2 % dan 10,8 % ga pasaygan.

Viloyat yetakchiligi asosan aholi soniga bog‘liq: 2024-yil 1-oktabrda viloyat aholisi 4 275,3 ming, respublika aholisi 37 355,4 ming kishi bo‘lib, har 1000 aholiga viloyatda 110,0, respublikada kamida 107,1 nafar o‘zini o‘zi band qilgan to‘g‘ri kelgan. Demak, bandlik zichligi respublika o‘rtacha darajasida. Respublika ko‘rsatkichi “... mln nafardan oshdi” shaklida yaxlitlab e’lon qilingani sababli viloyat ulushi taxminiy, yuqori chegara sifatida talqin qilinadi.

Platforma bandligining eng katta segmenti – yengil avtomobilda yo‘lovchi tashish (soliq organlari agregatorlar bilan 2023-yil dekabridan integratsiyalashgan).



1-rasm. 2024-yilda yengil avtomobilda yo‘lovchi tashish bo‘yicha o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni (yil boshidan yig‘ma), ming kishi

Rasmdan ko‘rinadiki, 2024-yilda yo‘lovchi tashish bo‘yicha o‘zini o‘zi band qilganlar soni 1-apreldagi 140,7 ming kishidan yil yakunida 450,5 ming kishiga yetib, 3,2 marta ko‘paygan. Bu segment barcha o‘zini o‘zi band qilganlarning 10,2 % ini tashkil etgan. Shu vaqtgacha 497,9 ming fuqaro agregatorlar orqali faoliyatini qonuniylashtirgan, ulardan 430,5 ming nafari (86,5 %) YandexGo orqali ishlagan; 2024-yilda 155 ta agregator 5,9 trln so‘mlik 319,1 mln chek bergan. Demak, o‘rtacha safar 18,5 ming so‘m, bitta ishtirokchiga yiliga 641 safar va 11,8 mln so‘m tushum to‘g‘ri kelgan. Keyingi dinamika 2-jadvalda taqqoslangan.

2-jadval

Taksi agregatorlari orqali faoliyat yuritgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ko‘rsatkichlari (yanvar-avgust)

Ko‘rsatkich	**2025-yil**	**2026-yil**	**O‘sish, %**
Ishtirokchilar, kishi	481 149	481 117	99,99
Safarlar soni, mln	301,9	329,1	109,0
Qiymat, trln. so‘m	5,82	7,16	123,0
Bitta safar, ming so‘m	19,3	21,8	112,8
Safar / ishtirokchi, dona	628	684	109,0
Tushum / ishtirokchi, mln .so‘m	12,1	14,9	123,0
Ayollar, kishi	3 753	4 107	109,4

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2026-yilning sakkiz oyida agregatorlar orqali ishlaganlar soni deyarli o‘zgarmagan, ammo safarlar soni 9,0 % ga, qiymati 23,0 % ga oshgan (2025-yil qiymatlari e’lon qilingan sur’atlar bo‘yicha tiklangan), ya’ni segment bitta ishtirokchining faolligi va safar narxi hisobiga kengaygan. 2026-yil 1-sentabr holatiga yengil avtomobilda

yo‘lovchi tashish bo‘yicha o‘zini o‘zi band qilganlar 782,5 ming kishini tashkil etgan (bir yil oldin 777,1 ming kishi), ya’ni ularning 61,5 % i agregatorlar orqali ishlagan.

Bitta ishtirokchining oylik o‘rtacha tushumi 1,86 mln so‘mni tashkil etgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ko‘ra, 2026-yil iyulida 2,8 mln. o‘zini o‘zi band qilgandan qariyb 800 ming nafari (28,6 %) ijtimoiy soliqni ixtiyoriy ravishda bir bazaviy hisoblash miqdorida (oyiga 412 ming so‘m) to‘lagan. Bu summa o‘rtacha platforma tushumining 22,1 % iga teng, ya’ni qat’iy to‘lov to‘liq bo‘lmagan bandlikdagilar uchun og‘ir yuk. 5,5 mln dan 2,8 mln. kishigacha qisqarish 2026-yildan faoliyat turlari ro‘yxati qisqartirilib, aylanma solig‘i joriy etilgan davrga to‘g‘ri keladi.

Viloyat ulushi (11,5 %) bo‘yicha taxminan hisoblansa, Samarqand viloyatiga agregatorlar orqali ishlovchi 55 mingga yaqin kishi to‘g‘ri keladi.

Xulosa

Samarqand viloyatida o‘zini o‘zi band qilganlar soni 15 oyda 1,6 marta oshgan, ammo ulushi 10,8 % gacha pasaygan; 1000 aholiga hisobda viloyat respublika darajasida. Taksi agregatorlarida o‘sish ishtirokchilar soni emas, ularning faolligi hisobiga ta’minlanmoqda. Takliflar:

Birinchidan, platforma orqali ishlovchilar uchun qat’iy summadagi ijtimoiy soliq bilan bir qatorda tushumga mutanosib badal: har bir buyurtmadan ishtirokchi hisobidan 4 % va platforma hisobidan 1 % agregator tomonidan avtomatik ushlab qolinadi. O‘rtacha oylik platforma tushumi 1,86 mln so‘m bo‘lganda bu 93 ming so‘mni tashkil etadi; mehnat staji to‘langan badalning bir BHM ga nisbatiga mutanosib hisoblanishi lozim. Ijtimoiy soliq to‘lovchilar ulushini 2028-yilgacha platforma ishtirokchilari orasida 28,6 % dan 50 % ga yetkazish maqsadli ko‘rsatkich sifatida taklif etiladi.

Ikkinchidan, taksi agregatorlari uchun qo‘llanilayotgan soliq bazasi bilan integratsiya modelini Samarqand viloyatidagi yetkazib berish va maishiy xizmat (usta chaqirish) platformalariga tatbiq etish. Bunda 1 % lik aylanma solig‘i har bir tranzaksiyada elektron hamyondan avtomatik to‘lanadi, platforma tushumi tarixi esa kredit skoringi uchun manba bo‘ladi.

Uchinchidan, qisqa malaka kursini tamomlaganlik sertifikatini platforma profilida ko‘rsatish va buyurtmalarni taqsimlash algoritmida hisobga olish.

To‘rtinchidan, Samarqand viloyati kesimida o‘zini o‘zi band qilganlar sonini har chorakda faoliyat turlari va platforma orqali ishlash belgisi bo‘yicha e’lon qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 806-son “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. – https://lex.uz/docs/5182451

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PQ-247-son “Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – https://lex.uz/pdfs/7681520

3. International Labour Organization. Convention concerning Decent Work in the Platform Economy, 2026 (No. 193). – Geneva: ILO, 2026.

4. International Labour Office. World Employment and Social Outlook 2021: The role of digital labour platforms in transforming the world of work. – Geneva: ILO, 2021.

5. De Stefano V. The rise of the “just-in-time workforce”: On-demand work, crowdwork and labour protection in the “gig-economy”. Conditions of Work and Employment Series No. 71. – Geneva: ILO, 2016.

6. Wood A.J., Graham M., Lehdonvirta V., Hjorth I. Good gig, bad gig: autonomy and algorithmic control in the global gig economy // Work, Employment and Society. – 2019. – Vol. 33, No. 1. – P. 56–75.

7. Xasanova S.I. Aholining o‘zini o‘zi bandligini rivojlantirishning nazariy asoslari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2024. – Vol. 4, No. 03. – B. 390-396.

8. Soliq qo‘mitasi faoliyatining 2024-yildagi yakunlari: natija va kelgusi rejalar. – 01.04.2025. – https://gov.uz/oz/soliq/news/view/42899